

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2025



ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 8-son (sentyabr, 2025-yil). – 47 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 26-sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Xaydarova Mashxura, Valiyev Gulam

AYOLLAR YENGIL KOSTYUMI UCHUN 100% PAXTA TOLASIDAN YARATILGAN NAQSHLI
TO'QIMA TUZILMASINI ISHLAB CHIQUISH 4-8

TARIX FANLARI

Kulboev Nishonboy

RESEARCH CONDUCTED IN UVOLSOY 9-12

Sodiqov Erali

YOSHLARDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKILLANTIRISHDA JADID
MARIFATPARVARLARINING ILG'OR G'OYALARIDAN FOYDALANISH 13-16

IQTISODIYOT FANLARI

Shukurov Ikrom

SAMARQAND VILOYATI TURIZM SOHASINING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINING
AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI TAHLIL ETISH 17-21

FALSAFA FANLARI

Yoqubova Nafisa

MILLATLARARO MADANIYAT INTEGRATSIYA JARAYONLARINING ASOSI 22-25

FILOLOGIYA FANLARI

Самиева Иродахон

КОРОТКО ОБ ИСТОРИИ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ В АМЕРИКЕ 26-31

Xoldorova Xulkaroy

TILSHUNOSLIKDA MATN VA UNING LINGVISTIK O'RGANILISH HOLATI 32-34

YURIDIK FANLARI

Sharipov Firdavs

OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATINING TARIXIY-
HUQUQIY TAHLILI: SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 35-39

Salomov Xumoyun

DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIDA PROKURATURA ORGANLARINING QONUNIYLIKNI
TA'MINLASHDAGI STRATEGIK VAZIFALARI 40-43

PEDAGOGIKA FANLARI

Mirzayeva Umidaxon

FIZIKA TA'LIM JARAYONIDA XALQARO BAHOLASH TOPSHIRIQLARI ASOSIDA BILIMLARNI
SHAKLLANTIRISH 44-46

TEXNIKA FANLARI

AYOLLAR YENGIL KOSTYUMI UCHUN 100% PAXTA TOLASIDAN YARATILGAN NAQSHLI TO'QIMA TUZILMASINI ISHLAB CHIQISH

Xaydarova Mashxura Qurbonali qizi

Farg'ona davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Email: dadajonovamashxura@gmail.com

Tel: +99893 972 68 00

Farg'ona, O'zbekiston

Valiyev Gulam Nabidjanovich

Texnika fanlari doktori, professor

Yengil sanoat muhandisligi kafedrası

Farg'ona, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada ayollar yengil kostyumi uchun 100% paxtadan tayyorlangan yangi naqshli to'qima turini yaratish masalasi yoritilgan. Tadqiqotda tanda o'rinishida 25/2teks, arqoq bo'yicha esa 37/1teks iplar tanlanib, to'qimaning mustahkamlik, gigienik, hamda estetik xususiyatlari baholandi. Paxta tolalaridan foydalanish matoga yuqori gigroskopiklik, havo o'tkazuvchanlik va ekologik havfsizlik kabi afzalliklarni beradi. Naqshli to'qima tuzilishi esa mahsulotning dekorativlik darajasini oshirib, ayollar kostyumlarida zamonaviy dizayn yechimlarini qo'llash imkonini yaratadi. Olib borilgan tadqiqot natijalari yangi turdagi naqshli paxta tolali matolarni ishlab chiqish texnologiyasini takomillashtirish hamda ayollar kiyimlarida qo'llash imkonini yaratadi.

Kalit so'zlar: paxta tolasi, kostyum, naqshli to'qima, chiziqli zichlik, mato tuzilishi, dekorativlik, texnologik jarayon.

DEVELOPMENT OF A KNITTED FABRIC STRUCTURE MADE OF 100% COTTON FIBER FOR A WOMEN'S LIGHTWEIGHT SUIT

Xaydarova Mashxura Qurbonali qizi

Basic doctoral student at Ferghana technical University

Valiyev Gulam Nabidjanovich

Doctor of Technical Sciences, Professor

Department of Light Industrial Engineering

Annotation. This article discusses the issue of creating a new type of patterned fabric made of 100% cotton for women's light suits. In the study, 25/2tex yarns were selected for warp knitting and 37/1tex for weft knitting, and the strength, hygienic and aesthetic properties of the fabric were evaluated. The use of cotton fibers gives the fabric such advantages as high hygroscopicity, air permeability and environmental safety. The patterned fabric structure increases the decorativeness of the product and allows the use of modern design solutions in women's suits. The results of the research allow improving the technology for developing new types of patterned cotton fiber fabrics and their use in women's clothing.

Key words: cotton fiber, costume, patterned fabric, linear density, fabric structure, decorativeness, technological process.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2025v1i8/n01>

Bugungi kunda to'qimachilik sanoatining asosiy yo'nalishlaridan biri — yuqori sifatli, gigiyenik va estetik talablarga javob beradigan kiyimlik matolarni ishlab chiqishdan iborat.

Ayollar kiyimlari, xususan kostyumlari uchun ishlatiladigan matolar nafaqat qulaylik, balki tashqi ko'rinish, shaklni saqlash xususiyati va bezakdorligi bilan ham ajralib turishi lozim. Shu bois yangi to'qima turlarini yaratish, ularning texnologik imkoniyatlarini kengaytirish va qo'llash sohasi bo'yicha izlanishlar olib borish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi[1]. Tabiiy tolalardan tayyorlangan matolar inson salomatligi uchun xavfsizligi, yuqori gigroskopikligi va havo o'tkazuvchanligi tufayli alohida e'tiborga ega [2]. Ayniqsa, paxta tolalari asosida ishlab chiqarilgan matolar ekologik tozaligi, allergik ta'sir ko'rsatmasligi va issiqlik almashinuvini ta'minlashi bilan keng qo'llanilmoqda[3]. Bu omillar ularni kundalik kiyimlarda, shu jumladan ayollar kostyumlarini ishlab chiqarishda istiqbolli xomashyo sifatida namoyon qiladi. Mato tuzilishida naqshli to'qimalardan foydalanish mahsulotning dekorativlik darajasini oshiradi, dizayn imkoniyatlarini kengaytiradi va estetik qiymatini belgilaydi[4]. Shu sababli zamonaviy modada yangi naqshli to'qimalarni ishlab chiqish va ularni kiyimda qo'llash ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kostyumlik gazlamalarning barchasida tanda iplariga, ba'zilarida arqoq turkumiga ham 15,7 teks x 2 - 31,3 teks x 2 yo'g'onlikda pishitilgan iplar qo'llaniladi. Yarim junli gazlamalarni ishlab chiqarganda jun iplariga 35 foiz viskoza èki kapron kompleks iplari pishitilib qo'shiladi. Yuza zichligi 220-340 g/m² , chiziqliy to'ldirilishi 70-90 foiz va ba'zi yuqori sifatli lari 110 foizgacha bo'ladi. Pardoatlanishiga ko'ra kamvol kostyumlik gazlamalar sidirg'a rangli va turli rangdagi iplardan to'qilgan (chipor) turlarida bo'ladi. Sidirg'a rangli gazlamalarning assortimenti uncha katta emas. Sof junli sidirg'a rangli gazlamalar jumlasiga boston kiritish mumkin. Bu yuqori sifatli va asl gazlamalar. Boston hosila sarja o'rilishda yo'g'onligi 31,2 teksx2 bo'lgan pishitilgan iplardan ishlab chiqariladi. Yuza zichligi 320-340 g/m² . Kreplar-yuqori eshilishga ega bo'lgan iplardan mayda gulli o'rilishda to'qiladi. Kreplar kam g'ijimlanadi, tashqi ko'rinishi juda yaxshi. Yarim junli sidirg'a rangli gazlamalar jumlasiga sheviot, krep va diagonal nomli gazlamalar kiradi.

Kostyumbop gazlamalar tarkibi va tuzilishi

No	To'qlma nomi	Xomashy o turi	Nisbiy zichligi	Tig' (№) tig' iplar zichligi	1 (dm) da iplar soni	Uro botka	Gazla mada 1 (dm) da iplar soni	to'qima o'rilishi	1m ² material og'irligi	To'qi ma tuzili shi
1	Kostyumb ob mato			69/4		10,6		2/2	260	
	tanda	50% W 50% P	44/2N _m		276		305			
	arqoq	50% W 50% P	44/2N _m		223		246			
2	Kostyumb ob mato			106/3		9,5		2/1	220	
	tanda	50% W 50% P	62/2N _m		318		348			

	arqoq	50% W 50% P	62/2N _m		280		306			
3	Kostyumb ob mato			75/3		20		2/1	240	
	tanda	50% W 48% P 2% EA	51/2N _m		226		264			
	arqoq	50% W 48% P 2% EA	48/2N _m		212		254			
4	Kostyumb ob mato			90/4		5			280	
	tanda	65% W 35% P	52/2N _m		360		378			
	arqoq	65% W 35% P	52/2N _m		280		294			
5	Kostyumb ob mato			90/2		20		gabardi n	272	
	tanda	50% W 48% P 2% EA	51/2N _m		180		216			
	arqoq	50% W 48% P 2% EA	48/2N _m		170		204			

1.Yarim jun iplardan to'qilgan kostyumbob mato yoki gazlamalarni taxlil qilib chiqamiz.

Dastlab iplarni tashkil qiluvchi tolalar tarkibini ko'rsak, asosan 50% miqdorda jun tola va 50% miqdorda poliestr kimyoviy tola aralashgan. Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki 1,2,6,8-qatordagi matolar tarkibi aynan shunga to'g'ri keladi.

Kostyumbob matoni sifat ko'rsatgichlarini oshirish uchun ip tarkibiga elastn tolasini qo'shib eshiladi, odatda bu iplar tarkibini 50% miqdorda jun tola, 48% miqdorda poliestr kimyoviy tola va 2% elastan tashkil qiladi.

2. Kostyumbob matoni tan narxini kamaytirish maqsadida ip tarkibidagi jun tolani sunniy viskoza tolasiga almashtiriladi. Bu xolda gazlama havo o'tgazuvchanligi va namlik saqlash xususiyatlari pasaysada, lekin mexanik xususiyatlarining ko'rsatgichlari yaxshilanadi. Ko'p hollarda bu tipdagi gazlamalar uchun 65% poliestr va 35% viskoza tarkibli iplar tanlanadi.

3. Kostyumbob matolar uchun odatda o'rtacha qalinlikdagi iplar ishlatiladi, ya'ni 44/2N_m, 62/2N_m, 51/2N_m, 48/2N_m kabi, bunday iplardan to'qilgan matolar tikuv buyumlarini tekis turishini taminlaydi.


4. Kostyumbob matolar asosan sarja to'qilishida, ya'ni 2/1, 3/1 to'qiladi. Sarja to'qilish matoga ozgina bo'lsa ham yaltiroqlik xususiyatini beradi. Yarim jun kostyumbob matolar *ГОСТ 11207—65 bo'yicha to'qiladi*.

Polotno o'rilishi – to'quvchilik o'rilishlar ichida eng keng tarqalgan. Bunda tanda va


arqoq iplari navbatma – navbat, to'qimaning o'ngiga bir gal tanda ipi, bir gal arqoq ipi chiqadilar.

Polotno o'rilish rapporti tanda va arqoq bo'yicha ikki ipga teng $R_t=R_a=R=2$. Bu o'rilishda to'qilgan to'qimaning o'ngi va teskarisi bir xil va tekis bo'ladi.

Tanda va arqoq iplarini chiziqliy zichliklari (yo'g'onliklari) ancha farq qilsa, polotno o'rilishli to'qima sirti o'zgaradi. Agar to'qimada tanda arqoqqa nisbatan yo'g'on bo'lsa, to'qima sirti 4.2-rasmda ko'rsatilganday bo'ladi. Beqasam gazlamalar ishlab chiqarishda ayni ingichka tanda iplari yo'g'on arqoq iplaridan polotno o'rilishi bilan ishlab chiqariladi 4.3 – rasm.



4.2 - rasm.



4.3 - rasm.

Tanda va arqoq iplarini eshish yo'nalishlarini polotno o'rilishli to'qima sirtqi ko'rinishiga ta'siri katta bo'lib, uni hisobiga to'qimalarda turli jilolar hosil qilish mumkin.



2.1 -rasm. To'qima namunalarini xavo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichlari.

Ushbu gistogrammada asosiy turli assortimentdagi kostyumbop to'qimalardan olingan namunalar bo'yicha ularning havo o'tkazuvchanlik hususiyatlari tahlili keltirilgan.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ayollar kostyumi uchun yaratilgan yangi naqshli to'qima mato yuqori gigiyenik va estetik xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Paxta tolasi asosida tayyorlangan matoning yuqori gigroskopikligi, havo o'tkazuvchanligi va ekologik tozaligi uni kundalik kiyimlar uchun optimal tanlov sifatida belgilaydi. Naqshli to'qimalardan foydalanish esa matoning dekorativlik darajasini oshirib, ayollar kostyumlari dizayn imkoniyatlarini kengaytiradi. Tajriba asosida olingan uzilishdagi kuch va gigroskopiklik bo'yicha diagrammalar matoning yuqori mustahkamlik va qulaylik darajasini tasdiqladi. Shunday qilib, taklif etilgan naqshli to'qima ayollar kiyimlari uchun funksional va estetik jihatdan samarali yechim hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdullayev A., To'qimachilik materialshunosligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018 [1].
2. Alimova X.A., "Tabiiy tolalardan to'qima shakllantirish jarayonlari va ularning texnologiyasi", dissertatsiya, Toshkent, 2020[2].
3. Mardonov B.M., Yuqori samarali iplar tayyorlash texnologiyasi va ularning ko'rsatkichlari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
4. Bozorov Sh., Matolarning fizik-mexanik xususiyatlari. – Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti, 2019.
5. GOST 3816–81. Paxta tolalarining fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlash metodikasi.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-
jild, 8-son (sentyabr, 2025-yil). – 47 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 26-sentyabr

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.